

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING TARIXDAGI O'RNI

Ramazonov Islom Abrayqul o'g'li
Toshpo'latov Jahongir Ibrohim o'g'li
Nurmamatov Shahriyor Komiljon o'g'li
termiz davlat pedagogika instituti

Annotasiya: *Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning tarixdagi o'rni. Bobur shaxsini o'quvchilarga anglatishda "Boburnoma"ning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Boburdek yosh avlodni voyaga yetkazishda yoshlarga Boburning tarixdagi o'chmas izlari haqida tushunchalar berilishi lozim.*

Kalit so'zlar: *Harbiy, sarkarda, panipat, jang usuli, shoh, elchilar, mardlik, jasurlik kabi tushunchalar*

Buyuk olim va sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur millatimizning eng yorqin vakillaridan biridir. Bobur haqida ingliz olimi Uilyam Erskinning quyidagi so'zlari uning nechog'lik mukammal inson bo'lganligini tasdiqlaydi: "Saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi". Shunday ekan yosh avlod Zahiriddin Muhammad Bobur bosib o'tgan hayot yo'lini yanada chuqurroq bilmog'i uchun bobukalonimiz haqida quyida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanish foydadan holi bo'lmaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'z navbatida harbiy jihatdan yuqori salohiyatga ega sarkarda edi. Bu haqda hindistonlik olim L.P.Sharma shunday deydi: "U jismonan baquvvat bo'lib, hatto qal'a devori ustidan ikki kishini qo'litiqlab o'ta olardi. U shayboniylardan urushning "to'lg'oma" usulini, mo'g'ullardan esa pistirma qo'yishni o'rgandi. Afg'onlardan poroxli miltiq ishlatishni egallagan bo'lsa, eroniylardan to'pni ishlatishni va turklardan suvoriylar safidan unumli foydalanishni o'zlashtirdi".

Shu o'rinda Zahiriddin Muhammad Boburning o'z dushmanlarining harbiy harakatlarini diqqat bilan kuzatib, ularning harbiy san'atlarini mohirona o'zlashtirib, jang maydonlarida qo'llay olgani e'tirofqa loyiq. Inson va sarkarda sifatidagi Boburning fazilat va iqtidoriga yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki, u "qor tepib yo'l ochish" vaqtida sovuq qotgan askarlarini o'zining shaxsiy jasorati bilan nafaqat ruhlantirishga balki, ularni so'zsiz qoyil qoldirishga ham muvaffaq bo'lgan edi.³ Ya'ni Dehli Universiteti proffesori Faruqiy o'z rasmiy ma'ruzasida qayd etgan voqeaga ko'ra, "Bobur atrofidagi sovuq qotgan sarbozlari ko'zi oldida yo'l ustidagi suvi muzlagan ko'lga tushib cho'milishga ahd qilgan va buni uddalagan"⁴ Shimoliy Hindistonda o'z hukmronligini o'rnatgan Bobur barcha viloyatlarga elchilar yuborib, quyidagilarni xabar qilgan. "Kimdakim agar bizga kelib mulozamat qilsa, har tomonlama ra'iyat qilamiz, agar ular ichida ota-bobolarimizga xizmat qilgan kishilar bo'lsa katta mukofotga sazovor bo'ladilar. Sohobqiron avlodidan bo'lgan har bir kishi bizning dargohimizga qaytib kelsinlar" ma'nosida buyruq bergan va unda: "Xudo bizga Hindiston mamlakatini ato qildi, kelsinlar, to bu davlatni birga suraylik" deyilgan.⁵ Ko'rinib turibdiki,

Zahiriddin Muhammad Bobur o'z ajdodlariga hamda ilm ahliga marhamatli va saxovatli hukmdor bo'lgan. Shuningdek, Boburning marhamatidan unga dushman nazari ila qarovchilar ham bebahra qolmagan. Shimoliy Hindistonda hukmronlik qilib turgan lo'diyar hukmdori, Panipat jangidagi Boburning joniga qasd qilgan raqibi Ibrohim Lo'diyning otasiga qilgan saxovati haqida "Boburnoma"da shunday deyiladi: "Ibrohimning otasiga yetti laklik pargana naqd inoyat bo'ldi. Beklariga har qaysisiga parganalar berildi. Ibrohimning otasini bayrilari bila chaqirib, Agradan bir kuro'h suv quyi yurt berildi"⁶ Zahiriddin Muhammad Bobur bobokaloni A.Temur singari davlat ishlarida vujudga kelgan murakkab vaziyatlardan aqlli tadbirlar ila chiqib ketganligiga o'sha davr manbalaridagi ayrim voqealar orqali guvoh bo'lamiz. Masalan, Panipat jangidan so'ng Hindistonning eng yirik, kuchli va tajribali rojalaridan Rano Sango bilan bo'lajak qonli urush oldidagi tahlikali vaziyat haqida Gulbadanbegimning "Xumoyunnoma"sida quyidagi voqea bayoni keltiriladi. "Sulton Ibrohim fathidan so'ng bir yil o'tgach, Rano Hindiston tomondan hisobsiz askarlar bilan paydo bo'ldi. Hind rojalari amirlarining rojalardan podshoh hazratlariga mulozamat qilganlarning hammasi podshohdan bo'yin tovlab Ranoga qo'shildilar.. Podshoh askarlari orasida hayronlik paydo bo'ldi, ko'p parokandalik va qo'rquv boshlanib, ular umidsizlikka tushib qoldilar. Podshoh askarlarining bu ahvolini ko'rib, chuqur fikr qildilar.

Dushman yaqinlashganda, u kishining muboraxotirlariga shu keldiki, hamma amirlar, xonlar va sultonlar, katta va kichik; baland va past qochib ketgan kishilar hamda bo'yin tovlagan kishilardan tashqari hamma kelganlar bir joyga to'plansinlar, deb buyurdilar.Hammalari yig'ilib keldilar. Podshoh ularga qarab:"Shuni esingizdan chiqarmangki, vatanimiz va shahrimizdan bizni necha oylik yo'l ajratib turibdi. Xudo u kundan asrasin, agar askarlarimiz bu jangda yengilsa, Xudo bizni himoya qilsin, biz qayerlarga qolib ketamiz? Ish ajnabiylar va begonalar qo'lga qolib ketadi. Ahvol shunday ekan, ikki yo'ldan birini tanlab olishimiz kerak. Agar dushmanni o'ldirsak, g'ozi bo'lamiz, agar o'ldirilsak shahid bo'lamiz. Shu har ikkala taqdir biznikidir. Bobur o'z mavqeini tiklash maqsadida 1519-1525 yillarda Hindiston uchun bir necha bor janglar olib boradi. 1526 yil Panipatda Hindiston sultoni Ibrohim Lo'di bilan jang qiladi. 1527 yili esa Chitora hokimi Rano Sango bilan kurashadi. Ikki kurashda ham Boburning qo'li baland keladi. Shu tariqa Bobur Hindistonda o'z hokimiyatiga asos soladi. Bobur asos solgan sulola tarixda eng yirik sulolalardan biri bo'lib, uning avlodlari 350 yildan ortiq Hindistonga hukmronlik qiladi.

Bobur hukmronligi davrida Hindiston gullab-yashnaydi. Adabiyot, san'at, shaharsozlik rivojlanadi. Uning o'g'illari va avlodlari davrida Hindiston qudratli mamlakatlardan biriga aylandi. Boburning avlodlari bobosining bunyodkorlik ishlarini munosib davom ettirishadi. Mamlakatda mukammal ma'naviy-ruhiy muhit vujudga keladi. Hindiston tarixida Boburning ahamiyati nihoyatda katta. Yirik hind olimi Javoharla'l Neru u haqida shunday deydi: "Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag'batlantirishlar hayotga, san'atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi".Bizning ulug' darajamiz va martabamizdir" dedilar"Bobur jahonga mashhur "Boburnoma"asarini yaratdi. Unda Movarounnahr, Xuroson, Hindiston xalqlari tarixi, urf-odat va an'alarini, tarixiy shaxslarini, mamlakat tabiiy lavhalarini aks ettirdi. Bobur Xo'ja Ubaydullo Ahrorning "Volidiya"risolasini fors

tilidan o'zbek tiliga tarjima qildi, aruzvazni va qofiya masalalariga "Mufassal" asarini yozdi. Zahiriddin Muhammad Bobur adabiyotshunos, tarixshunos olim va shoir sifatida xalqimiz ma'naviy madaniyati tarixida muunosib o'rin egalladi. Bobur 1530-yilning 26-dekabrida Hindistonning Agra shahrida o'zi bunyod etgan go'zal maskan Zarafshon chorbog'ida vafot etdi. Bobur qisqa vaqt ichida Hindistonda siyosiy muhitini barqarorlashtirish, Hindiston yerlarini obodonlashtirib, birlashtirish, savdo-sotiq ishlarini tog'ri yo'lga qoyish, bog- roglar yaratish ishlariga rahbarlik qildi. Madaniy yodgorliklar qurish, karvonsaroylar barpo qilish, kutubxonalar qurish Bobur va uning ogillari davrida keng miqyosda yoyildi. Hindiston memorchiligiga Markaziy Osiyo uslubi kirib kela boshladi.

Bobur va uning hukmron avlodlari huzurida osha davrning ilgor va zehni otkir olimlari, shoirlari, musiqashunoslarini mujassam etgan mukammal bir ma'naviy-ruhiy muhit vujudga keldi. Turkiy adabiyotning eng mashhur vakillaridan biri, o'zining ijobiy faoliyati va kuchli siyosati bilan dunyo tarixida o'chmas nom qoldirgan buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur Amir Temurning munosib vorislaridan bo'ldi. uning avlodlari esa ko'p yillar davomida dunyo siyosatiga katta ta'sir ko'rsata oldilar. Shu tariqa Bobur ulkan sulola asoschisi sifatida tarixda qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nizomiddinov N.G.' Buyuk boburiylar tarixi T.: 2012. B. 146
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Shams porso tarjimasini. T.: 2015. B.231
3. Sulaymonov, J. (2021) ABDURAHMON IBN XALDUNNING TAMADDUN TARAQQIYOTI HAQIDAGI QARASHLARIDA JAMIYAT TAHLILI
4. Sulaymonov, J. B. (2021). IBN XALDUNNING „MUQADDIMA "ASARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TALQINI.
5. Sulaymonov, J. Karimov, N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019.
6. Sulaymonov, J. B. (2021). ABU ZAYD ABDURAHMON IBN XALDUNNING „MUQADDIMA "ASARIDA DAVLAT TUSHUNCHASIGA YONDASHUVLAR TALQINI.
- 7 Nizomiddinov N.G.' Buyuk boburiylar tarixi T.: 2012.